

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat
Universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili bo'limi*

REFERAT

Mavzu: REALIZM VA MODERNIZM UYG'UNLIGI

Topshiruvchi: Abdullayev Gulomjon

Qabullovchi: Qurbonboyev Ilhom

Nukus - 2012

REALIZM VA MODERNIZM UYG'UNLIGI

Qariyb bir asr muqaddam 16 yoshli Abdulhamid Cho'lpon badiiy adabiyotga shunday ta'rif bergan edi. Darhaqiqat, adabiy jarayon doim rivojlanishda, yangilanishda. U har bir davrda turli "tusda va rangda" tovlanadi. Jumladan, mustaqillik yillariga kelib milliy adabiyotimiz yangi bir bosqichga o'ta boshladi. Ulug'bek Hamdam ana shu yangilanib ulgurgan milliy adabiyotimizning eng yirik vakillaridandir.

“Har bir yozuvchining o'z uslubi borligini yaxshi bilasiz. Voqeani tasvirlash uchun tanlagan so'zlari ham, ifoda uslubi ham farqli chiqadi. (Qaysi rakursdan turib qaralgani va qanday ijodiy maqsad ko'zlangani butunlay boshqa mavzu!) CHunki siz boshqa odam - boshqa olamsiz, men ham boshqa. Bas, shunday ekan, romanlarimning tili bu - mening dunyoko'rish va uni qabul qilish tabiatim bilan bog'liq hodisa. Men o'zim ko'rgan-kechirganlarimni ayni o'sha til bilan ifoda qilmasam, to'lib ketgan ko'nglim bo'shamaydi, men tanlagan so'zlar va men qurgan gap konstruktsiyalarida mening xarakterim mujassam. Binobarin, har bir yozuvchining hikoya qilib berish ohangi, gap qurish uslubi o'ziga xos bo'lsa, deb orzu qilaman. Har tomonlama taroshlangan, jilvirlangan, inkubatordan chiqqan jo'jalardek bir xildagi uslublar bilan adabiyotning rang-barangligiga erishib bo'lmaydi. Lekin bu bilan mening asarlarimning tili kamchiliklardan butunlay xoli, demoqchi emasman, aslo. Aytmoqchi bo'lgan narsam shuki, "tanqidchilar" da'vo qilayotgandek ham emas. Mutlaqo! Ularga ikki-uch o'rinlarda haq berganim holda qolgan ayblovlari bilan bahslashish mumkin, demoqchiman. Nafsilamrini so'rasangiz, bunday bachki masalalarda munoqasha qilishga umrimni sarflashdan ko'ra yana bitta roman yozib, uning titroqlarida to'lg'onish menga yoqimliroq va azizroq tuyuladi. (Shuningdek, masala jiddiylashsa, munozaraga aralashishdan bosh tortilmaydi). Chunki hazor shukrki, aytadigan muhimroq gapim bor, yuragim ham yonishdan to'xtagan emas!” deydi Ulug'bek Hamdamning o'zi.

Hozirgi yaratilayotgan badiiy asarlardagi muhim jihat shuki, ular bir-biriga ozgina bo'lsa ham o'xshamaydi. Bu narsa ko'ngilda umid uyg'otadi. Deylik,

Qodiriydan boshlangan milliy o'zbek prozasida muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit sabab to 90-yillargacha ifoda uslubi va mavzuda jiddiy yangilik deyarli kuzatilmadi hisob. 90-yillardan keyin esa biri ikkiinchisilikiga o'xshamagan uslubga ega bo'lgan yozuvchilar ko'zga ko'rina boshladi. Bu jarayonning tezlashishi ijodiy erkinlik bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Uslubiy rang-baranglik shak-shubhasiz ijodiy erkinlik deb atalgan ne'matning dastlabki shirin mevalaridir. "Badiiy adabiyot razmlar tili, ezgulik va qabohatning mangu jangohi, inson qalbidagi cheksiz iztiroblar suvratidir. Bugunning iqtidorli ijodkorlari insonning botiniga, his-tuyg'ulari to'lqiniga, orzu-armonlariga diqqatni qaratmoqda. Serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdam asarlari ham bundan mustasno emas. Ulug'bek adabiy - tanqidiy maqolalari, she'riy turkumlari, nasriy asarlari bilan abadiy jamoatchilik e'tiborini tortdi" deydi adabiyotshunos B. Karimov.

Ulug'bek Hamdamasarlariining o'ziga xosligini "Isyon va itoat" romani misolida ham ko'rish mumkin.

"Isyon va itoat" yorug' dunyo tartibotlari bilan birda chiqishsa, ko'pda chiqishmay, boqiy olamga umid va umidsizlik ichra ketib borayotgan Ziyoli Inson (Tabib, Akbar, Iskandar)larning botinidagi Ziddiyatlar haqidagi romandir. Ularning isyoni maoshlarining kamligi yo hayotlarining boshqalarnikidan tussizroqligiga qaratilgan emas, aslo! Ular daxri dunga o'z Isyoni bilan tashrif buyurgan zotlardir! Boshqacha aytganda, roman qaxramonlari Insonlik qismatini, uning mavhumot, ya'ni o'lim sari ohista dumalab borishini qabul qilolmaydilar. "SHunday go'zal ruhni in'om etganing holda nega unga issig'u sovuq, zamonu makon ta'sirida emirilib boruvchi mo'rt vujud berding?", deya YAratganga yozg'iradi roman qaxramonlari. "Mening ishim odamlarga tushgani yo'q, mening borliq muammom Sen bilan hal bo'ladi, ey Parvardigor!" deya bo'zlaydilar yana ular.

Romanda dunyoning yaratilishi, Odam Ato va Momo Havolarning man etilgan olmani eb, jannatdan quvilishi bilan bog'liq rivoyat bor. Ushbu rivoyat qaxramonlar hayotiga yondosh tarzda, muvoziy bir shaklda beriladiki, bu bilan

yozuvchi go'yo Akbar, Tabib, Diana, Tursunboy Jontalash, Iskandar kabi asar qaxramonlarning peshona yozug'i azalda darj etilgan, ular ming chirpinib o'rgilsalar ham o'sha yozuq doirasidan ko'pda uzoqlab ketolmaydilar, demoqchi bo'ladi. Lekin asarning boshidan oxiriga qadar uzilmay o'tguvchi bir chiziq mavjud bo'lib, uning nomi qaxramonlar - Tabib, Akbar va Iskandar qismatlarini bir ipga tizuvchi Isyondir. Ular odamzodga azaldan tayin qilingan taqdirni bandai mo'min kabi jimgina, beso'rog'u betaftish qabul aylab ketolmaydilar, yo'q! Bunday tutimning gunoh ekanligi ich ichdan anglab, his etib turadilar. Ammo nima qilsinlarki, o'z botinlarida yashirinib olib, har kuni, har odimda "nega, nima uchun?" deya Odamiyzodning lavhu mahvuzda bitilgan taqdiri avra-astarini ag'darib ko'rayotgan ichkimendan, uning xurujlaridan asrana olmaydilar. Ular uch avlod vakillari. Qariya, o'rta yoshli erkak va yosh yigit. Tog'dan oqib tushayotgan suvning shiddati tobora ortgani yanglig' Tabibdan boshlangan Isyon olovi Akbarda gurillab yonadi, Iskandarda esa yana avjlanadi.

Romanda Isyonga teng keladigan, uning oqish shiddatini o'ziga qabul qilib, yuvosh tortiradigan boshqa bir kuch borki, ismi Itoat. Biroq Isyondan Itoatga qadar uloqqan yo'l umrlarga tatigulikdir. Bu yo'lda har kim o'z qismati ila yolg'iz qoladi. Garchi ustozlar o'giti yangrab tursada, baribir, asar qaxramonlari o'z vujudlaridagi Isyon gulxanida batamom kuyib kul bo'lmaguncha Itoat farog'atini totolmaydilar. Romanda aks etgan badiiy haqiqatlardan biri ham shu erda mujassam: bu dunyoda Isyondan Itoatda qadar uzangan yo'lni har kimning o'zi bosib o'tgusi.

Jahon adabiyotida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda, borliq va inson hayotining ma'nisizligi hamda fojeiyligi haqida ko'p gapirishyapti. Hatto badiiy asar ob'ekti bo'lgan shaxsning tarixiy-ijtimoiy ziddiyatlar ichida o'ralashib qolganligini va uning hayotidagi aniq muammolarni ochib beruvchi adabiy atama-iboralar paydo bo'la boshladi. Borliqning fojeiyligi, absurd voqelik va absurd tasvir, insoniyatning metafizik isyoni, inson mavjudligining dramasi, shaxs maqomi, hayot mohiyati, erkinlik va erksizlik, yolg'iz inson kabi tushunchalar shular jumlasidan.

Ekzistentsialist olimlar inson tafakkurining mavjud voqelikka isyoni tarixini falsafadagi tushkunlik va nigilizm oqimlari tarixining qarshi tarkibiy qismi deb baholab, badiiy asar qahramonining qalbida vakuum – bo'shliq paydo bo'lganligi, uning individualizm, yolg'izlik kayfiyati, o'zi va olamga nisbatan nafrat hissi, o'limning muqarrarligi haqida doim o'ylash, dahriylik, xudoni inkor etish va unga qarshi isyon, xatti-harakatlarining ahamiyatsizligi va qadsizligini ko'rsatib berishyapti.

1950-yillar oxirida Angliya adabiyotida «Serjahl yoshlar» oqimi paydo bo'ldi va tez shuhrat topa boshladi. An'anaviy adabiyot va bu yangi yo'nalish o'rtasida ko'p o'xshashlik bor edi. Ularning asarlarida o'z zamonasining tartiblari, voqelik, siyosiy partiyalar va ularning dasturlaridan norozilik, amaldorlarning snobizmi – o'zlarini o'ta bilimdon qilib ko'rsatishlari aks etgan. Yangi oqim tarafdorlari ijtimoiy tengsizlik, kelajak hayotga ishonchsizlik kayfiyatini oddiy, avom xalq nuqtai nazaridan yoritib, konservator, liberal va leyboristlarning subutsiz siyosatidan yuz o'girib, siyosat bobida loqaydlik va betaraf mafkurani bayroq qilib oldilar. Shu doiraning ko'zga ko'ringan g'oyaviy vakillaridan biri Kolin Uilson har qanday siyosiy va ijtimoiy faoliyatni inkor etib, inson va insoniyat taqdirini hech qanday moddiy islohot va inqilob yaxshilikka o'zgartira olmaydi; inson va insoniyat faqat sof ma'naviyat, ma'rifat, ichki, ya'ni qalbda yuz beradigan inqilobgina qutqara oladi, deydi. Ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlarni bartaraf qilishning birdan bir yo'li inson qalbini teran tahlil qilish ekanligini ta'kidlaydi.

Bu g'oyalar Kingsli Ellis, Jon Ueyn, Jon Osborn, Jon Breynlarning tanqidiy realizm ruhida asarlarida jamiyat va ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni qattiq talabchanlik va ehtiros bilan qoralashda ifodasini topdi. Turmushning to'la nosoz va nobobligi, yaxshilik tomon o'zgarishning sezilmayotganligi, hayotning zerikarliligi «Serjahl yoshlar»ning umidsizlik va ruhan tushkunlik kayfiyatini kuchaytirdi.

Inson taqdiri va inson hayotining mohiyatini ifodalovchi falsafiy, axloqiy motivlar yig'indisidan tarkib topgan ekzistentsializm adabiyotining mazmun

doirasi jahon adabiyoti ko'lamida kengayib bordi. Jamiyatdan uzilib qolgan shaxs va uning ichki olami, hayotning mazmuni va ma'nosizligi, be'mani – absurd turmush tarzi, bunday hayotning sehrli changalidan chiqib keta olmaslik ekzistentsial adabiyotning mazmunini tashkil qilyapti. Bunda, masalan, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, sevgi-muhabbat kabi barqaror sanalgan qadriyatlar olamining inqirozi, tartibsizlik, hayotning mayda-chuyda tashvishlari, zaruriy ehtiyojlarni qondirish uchun intilish, baxtning erishib bo'lmaydigan narsa ekanligiga e'tibor qilinadi. Bu adabiyot qahramonlari hayot tashvishlarining og'irligidan tiklana olmay, egilib yuraveradi, u doim o'limini kutib, undan qo'rqib kun kechiradi. Beistisno, bu barcha jahon adabiyoti uchun xos mavzu. Hozirgi o'zbek adabiyoti ham shu jumladan.

Shopengauer “Olam – erk va tasavvur in'ikosi” asarida “Odamni azob-uqubattan nima xalos etadi? degan savolga, “eng avvalo, o'zgalarning azob-uqubatini tushunish, nafaqat uni ko'rish va sezish, balki o'zining azob-uqubatiday his etish; o'zgalarning bebaxt taqdirini anglash o'zimizning taqdirimiz haqida o'ylashimizga yordam beradi», - degan edi. YOzuvchining o'z qahramoni obraziga singib ketishi va uning dardiga malham bo'lishga intilishi kabi holati bugungi o'zbek romanchiligida yaqqol ko'rinyapti.

Asar oxirida yoshi oltmishlarni qoralab qolgan Akbar butun ongli hayot davomida “Nahotki inson hayoti hech nimaga arzimasa?” degan savolga javob qidirib o'tdi. Adolatli hukm chiqaraman, deb qasam ichgan hakamning yuzsizligi tufayli kesilib ketishi, ozodlikka chiqqach ham tushungan odamlar tomonidan kamsitilishi, oila boshlig'i bo'la turib, bir tishlam go'shtga zor bolalarning ehtiyojini qondira olmayotganligi, rus mafiyasining zulmiga chidash, tibbiyot professorining «grippga o'xshagan kasalliklarni vaqti-vaqti bilan kuchaytirish» kerakligi, “o'shanda mo'rtroqlaru zaifroqlardan tozalanib turishlik”, shunda “dori-darmondan ancha-muncha pul ishlab olish mumkinligi» haqidagi nazariyasi va boshqa qator-qator o'ylab chiqarilmagan, hayotiy ziddiyatlar asar qahramonining isyoniga sabab. Akbar Shopengauerga quloq soladi. K.Uilson aytganidek, ma'naviyatga intiladi, tinmay kitob mutolaa qiladi, qalbida ma'rifiy inqilob yuz

beradi. Insoniy qadr-qimmati toptalgan fohisha Dianani yangi, pokiza hayotga chorlaydi, himoyasiz kampir qo'shnisiga beminnat g'amxo'rlik qiladi. SHu tariqa isyonkor qalb itoatga keladi.

Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" deb nomlangan muxtasar romani falsafa va adabiyotdagi ekzistentsializm motivlarini namoyish qilib beradi. O'z taqdirining quli bo'lgan inson qalb isyoni tufayli va o'z ahvolini yaxshilash yo'lidagi urinishlari oqibatida faqat soxta erkinlikka erisha oladi. Haqiqiy erkinlikka erishish uchun esa u taqdir qulligidan qutilishi lozim qabilidagi aqida bilan tanishadi kitobxon.

Romandagi Tursunboy obrazi, u qanchalik fojeiy siymo bo'lmasin, nihoyat samimiy va mahorat bilan yaratilgan. Uni salbiy obraz ham deb bo'lmaydi, chunki haqiqiy mehnatkash, dala ishlari va uy yumushlarini birinchi o'ringa qo'yadi, ijobiy obraz ham deyish qiyin, chunki u ma'naviy jihatdan kitobxonga o'rnak bo'la olmaydi. Tursunboy "sira tin olmagani, doim "ish, ish, ish" deb yurgani uchun odamlar uning nomiga orqavarotdan laqab taqib aytishadi: Tursunboyning joni talash – jontalash. Ha, haqiqatan ham butun umri davomida bechoraning joni turmushning ikir-chikirlari orasida taloshda qoldi. Biroq uning o'zi buni bilmadi, hayot shu, tiriklik shu, deya keldi..." (86-bet). Rostdan ham hayotiy obraz. Bundaylar kammi dunyoda! Ish deb ota-ona, qarindosh-urug', yoru birodarlardan xabar olishni unutayozganlar yo'qmi! Lekin koshkiydi, shunday mehnat evaziga uyida qozon qaynab tursa. "Qozon o'lgurning go'sht ko'rmaganiga ham ikki oy bo'ldi", deb uy bekasining kuyinishida ham jon bor. "Dunyoda kolbasa, pishloq degan narsalar ham borligini bilasizmi siz?", degan so'rog'iga Tursunboy o'zicha munosabat bildirib, ularni "kofirning emishi" deydi. Qahramon shunday hayotga ko'nikib ketgan, uningcha, hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Bu - taqdir. Peshona. O'zi – taqdirning quli. Qalbida shunday hayot tarziga nisbatan isyon tugul uning uchquni ham yo'q...

Tursunboyning antiqaligi shundaki, u hamma narsani o'z qarichi bilan o'lchaydi. Yarim kechada ishdan kelib, "oshxonaga o'tib, qozonning qopqog'ini ko'tardi. Suyuq ovqat. Cho'michni aylantirib ko'rdi - uch-to'rtta kartoshka va

tuxum bo'laklari: demak tuxum sho'rva" (34-bet). U o'zicha doim haq. Unga bir burda qattiq non, termosda choy, choyga solgani bir dona oq qand bo'lsa bo'lgani. Mana, Jontalashning og'ir mehnat evaziga mukofoti – bir kunlik emishi. Bu - hayot. Qahramon bunday hayotdan nolimaydi. Faqat uning atrofida qalbidagi isyon kuchli. Lekin, baribir, bu isyon qahramonimizga ta'sir eta olmaydi. U bamisoli robot, hatto uni manqurt, zombiga o'xshatgini keladi. Unda isyon yo'q. Itoat bor xolos.

Romanda Tursunboy uchun jon kuydiradigan yaqini – uning xotini. Lekin uning sa'y-harakatlari, qalbidagi tug'yon, isyonning ham zarracha samarasi sezilmaydi. Bir dialog keltiramiz:

- ...Er bo'lib mundog' odamlarga o'xshab kurortu-sanatoriylarga biror marta olib bordingizmi?

- Pishirib qo'yibdimi u erlarda!.. Ish turganda kurortma-kurort yuradimi odam?..

- Ish o'lgur qachon tamom bo'libdi... Odam sob bo'ladiki, ish tugamaydi. Mana siz... necha vaqtdan beri ishlaysiz, hech biringiz ikki bo'ldimi?..

- Nega bo'lmas ekan? Qiz chiqardim, o'g'il uyladim, mana, imorat bityapti...

- O'zingiz-chi, o'zingiz... O'zingizni ham hech o'ylaganmisiz?.. Oyog'ingizdagi etikni mundog' echib...

- Etikka til tekkizma! SHu etikni kiyib yurganim uchun birovdan bir burda non tilab ko'chaga chiqmayapsan, uqdingmi?.. Nonni tug, sen bilan adi-badi aytib o'tirishga vaqt yo'q. Ishga kechikypman!..

- Ha ishgina o'lsin, o'libgina qolsin ishgina... (34-bet)

Ko'rinib turibdiki, bu erda biror uydirma yo'q. Hayotdan olingan kundalik tashvish, tashvishning barcha og'irligi esa qahramonimiz gardanida. Uni engillashtirish haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Qaniydi tipik qahramon tipik hayotning bajarilishi lozim bo'lgan istak, tilak, xohishdan iboratligini, hayotda ishdan tashqari boshqa muqaddas narsalar ham borligini anglasa, orzumandlikning ro'yobga chiqmasligidan azob-uqubat, tashvish, havotirlikning kelib chiqishi,

buning oqibatida ko'ngilsiz noxushliklar yuz berishi va ularni bartaraf etish lozimligini tushunib etsa! Tushunishni xohlamaydi ham. Aksincha, turmushning nosozliklaridan qalbi isyonga to'la, oqila ayolini kamsitadi: «Sochi uzun aqli qisqa-da buning... mehnatning nimaligini bilmaydi», - deb g'udranadi Tursunboy(35-bet).

Qahramonimizning o'zligini namoyish eta olishiga, “boshqalarga o'xshab” yashashiga to'sqinlik qiluvchi bir holat bor. Bu uning dunyoviy, kundalik turmush tashvishlari bilan bog'liq dunyoqarashi. Yakkayu yagona akasining to'yiga bormasa bormaydiki, dalani qo'ymaydi. Natijada hatto o'g'lidani “el-yurtdan, odamgarchilikdan chiqib qolyapsiz» degan dakkini ham eshitadi. SHu erda ham “to'yonani berib yubordimku, bo'ldi-da», deb yana o'zini oqlaydi. Tursunboydaqa jontalashlar bu dunyoda kammi? Ular hayotning shu mashmashalari ichida ham o'zini baxtli, to'g'ri, adolatpesha hisoblaydilar. Atrofdagilarning uning turmush tarziga munosabatini yoqtirmaydi. To'ydani keyin chaqchaqlashib o'tirgan farzandlarining, otasi daladan kelgach, indamay turib xonalariga kirishib ketganining sababini tushunmaydi. O'zining nazarida Tursunboy qanchalik haq bo'lmasin, uning qalbi bo'sh, ma'no yo'q. SHu narsa uning fojeasiga sabab. Dunyoqarashi sog'lom turmush tarziga zid. Boshqalar bilan hisoblashmaydi. Xudbin. Bir joyda qotib qolgan. Xotini, farzandlari, akasi ham uning fe'li-atvoridan norozi. «Mening bittayu bitta ukam bor edi. Endi u yo'q! Bor ket, o'sha dalangga, o'sha ishingga” (54-bet). Akasining ham uyidan quvildi.

Cheklangan dunyoqarash, ma'naviy mahdudlik va qashshoqlik inson taqdirini o'zgartira olmaydi. Muhimi – hayotda yagona, haqiqiy, to'g'ri yo'l topa bilish. Ichki, ruhiyatda, ma'naviy olamdan ajralib qolgan shaxs ruhi yoki ichki olamini o'zgartirish va ezgulikka yo'naltirishning yagona yo'li shu.

Fikr ekzistentsial adabiyot istilohlari bilan ifoda etilsa, fojeyiy qahramon timsolida barbod bo'lgan inson olami, aniq bir shaxs – xoh u badiiy to'qima bo'lsin, xoh oramizdagi inson hayotining qorong'i tomon ravshan ifodasini topgan. Buni hayot deydi. Amaldagi ijtimoiy sharoitga, jaholatga, ma'naviy qashshoqlikka, hayotning qadrsizligi va kelajakka ishonchni yo'qotganganligi, aniq

hayotiy maqsad va unga erishish yo'lining yo'qligi, erksizlik va erk sog'inchi, erkka intiqlik, unga talpinish, umuman, hayotning mazmunsizligiga qarshi norzilikning bir ko'rinishi tarzida qabul qilish mumkin fojeiy obrazni. Bu dunyoda, bugungi ijtimoiy sharoitda hukm surayotgan «o'g'irlik, muttahamlikning tabiiy hol, zo'rlash-o'ldirishning oddiy ehtiyoj» (23-bet)ga aylanganligi nafaqat fojeiy obrazni, balki Akbarday kuchli siymoni ham o'yga toldiradi.

Har bir inson qalbida uni qoniqtirmayotgan narsasi, ma'lum bir sharoitda toqat qilib bo'lmaydigan holati bo'ladi. Holat esa sharoitga qarshi norozilik qo'zg'atadi. Yashashdan maqsad esa qoniqtirmayotgan narsa, o'sha pinhoniy his va norozilikni butun irodasi bilan bartaraf etib, mukammallikka erishishdan iborat.

Yozuvchi hayotda yuz berib turadigan nohaqliklarni ayblaydi. U halol-pok, vijdonga dog' tushirmay yashash tarafdori. Bunga erishib bo'ladimi? Barcha dunyoviy dinlar pok turmushni madh etadi. Injilda Muso alayhissalomning 10 ta mashhur Qonunlaridan biri «Bevafolik qilma» deyiladi. Sulaymon payg'ambar «Hikmatlar» kitobida katta bir bobni shu mavzuga bag'ishlagan. Konfutsiy, Gautama ta'limotlarida qancha o'gitlar bor! Islomiy muqaddas kitoblarda pokiza turmush haqidagi oyati mukarramlarning sanog'i yo'q.

Lekin hayot boshqacha. Fohisha Diana, qo'shmachi Marat, baqaloq mijozlar uchun hech qanday muqaddas narsa yo'q. Ular moddiy va shahvoniy hirslarini qondirishsa bo'lgani. Yashashning bundan boshqa lazzati yo'q. Lahzada boqiylik, qisqa hirsiiy his – bu yuqoridagi shaxslarning qalbidagi bo'shliq va shavqsizlikdan. Ular uchun hayot mazmuni - shu. Roman muallifi ba'zan “beparda”, ba'zan tavsifiy, monologik hikoya tarzi bilan kitobxonni isyonga da'vat qiladi. Qisqa, lahzalik hirsiiy qoniqish va yoqimli hissiyot – Aflotun ta'biricha, bamisoli hech to'ldirib bo'lmaydigan teshik ko'za, bu xudbinlik, ochko'zlik, bugungi kuni bilan yashash, istiqbolini ko'ra olmaslikdan nishona. Oqibatda nima bo'ladi? Odam haqiqiy o'zligini yo'qotadi, kundalik turmush tashvishlari ichida, ish, xizmat, oila va jamiyat uchun yaroqsiz mavjudotga aylanadi. SHu darajaga etib borayozganda Diana hayotida Akbar paydo bo'ladi-da, unda ichki ikkilanish – dunyodan norozilik va borliqni tan olish, isyon va itoatning hamnafas holati yuz

beradi. Isyon Diananing ham qalbida cho'g'lanadi va asta-sekin olovlanib, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Bu dunyodagi - tevarak-atrofdagi, qahramon yashab turgan muhitdagi qabohat, dahshat, fojea, chorasizlik, shafqatsizlik undagi norozilikni kuchaytirib, oliy ruhiy Qudratga - itoatga chaqiradi. Nochor inson ruhiy Qudratga iltijo qiladi, yalinib-yolvoradi yoki Unga nisbatan isyon hissi qo'zg'oladi. Itoat esa umid uyg'otadi. Bag'ritosh rus mafiyasi Akbardan tiz cho'kib yolborishni talab qiladi, uni ming qiynoq-azoblarga solishganda, Akbar «Bu axir adolatsizlik-ku, Xudojon!» - degan alamli o'y hayolidan kechadi. Azobdan "hayoliga hech nima kelmay qoldi; na shirin-shakar bolalari, na xotini, na otasi va na onasi, hech kim! Hatto duoni ham unutdi. Faqat isyon bor edi balki uning yuragida! Isyon bo'lgandayam, o'z qismatiga, qismatning alamli, dunyoning firibdan, zo'rovonlikdan, adolatsizlikdan iborat ekanligiga qarshi Isyon!.. Agar mana shu lahzada – Akbarning vujudi havoda bir muddat muallaq osilib turganda shu qaltis onlarda uning botinidagini so'zga ko'chirish mumkin bo'lganda edi, ehtimol, "Sen ham adolatsizmisan, Xudoim?!" degan mazmunda bo'larmidi... Agar harakatga ko'chirilganda Akbar tura solib Yaratganning yoqasiga yopishardi..." (17-bet).

Darhaqiqat, odamlar g'ariblik va olamdan adolatsizlik ko'rsa, aslo o'zidan ko'rmaydi, bularning barchasida Tangrini ayblaydilar, Unga qarshi isyon ko'taradilar. Shuningdek Akbar – u asardagi eng sevimli, romantik shaxs obrazi, olov bo'lib barcha illatlarni kuydirib kul qilishga tayyor – u hech qaerga sig'maydi, Unga havo etishmayotganday. Dunyo ham tor ko'rinadi. Ko'ngli uzoq-uzoqlarni qo'msaydi. Ketgisi, qochkisi keladi. Dunyodan qochish mumkin, lekin o'zidan qochib bo'lmaydi. Yaxshisi – o'sha halaqit berayotgan narsani aylanib o't (Akbar o'zini: «Nima qilib yuribman bu erlarda, - begona yurtlarda? Bir burda nonni o'z yurtimda topib eyaolmasmidim?» – deb so'roqqa tutadi (21-bet)). Yaratgan o'zi yorlaqaydi. Xudo osmonda, sening tepangda emas, u sening ichingda, qalbingda. Har bir harakating Uning nazarida. «Har qanday ulug' ish boshlamagin, hammasining oxiri qayg'uli» ekanligi, inson umrining mazmuni va mantig'i,

hayotning adolatsizligi, jabr va zulmdan iboratligi haqida chuqur falsafiy, ba'zan tushkunlik kayfiyatidagi mushohadalarga beriladi Akbar.

Romandagi mavzu, sujet, motiv va boshqa unsurlar, albatta, yozuvchi tomonidan kashf qilingan emas. Ular, masalan, "sayyor sujetlar"day, boshqa ijodkorlarda ham bor. Bu - tabiiy hol. Lekin gap bunda emas. Ulug'bek Hamdam ijodiyotida ekzistentsial yo'nalishga xos inson va insoniyat, borliq va yo'qlik, teran ichki, ma'naviy konfliktlarga urg'u berib, ularni dadil ko'rsatib bergan. Bu jarayonda u Yaratgan Alloh bilan yoqalashishdan (Astag'firulloh!) ham tap tortmaydi.

Yozuvchi oyday ravshan mavzular sehriga berilmaslikka undaydi o'zini. Muayyan g'oyaviy-ma'naviy masalalar va ularning echimiga e'tibor qaratadi. Bu ijodiy yaqinlikdan, masalan, fojeanavis yozuvchilar mushtarak falsafiy va ijodiy rivojlanish yo'lini o'taganligini namoyish etadilar. Hayotga, jamiyatga, o'ziga, qolaversa, asosiy axloqiy qadriyatlarga nisbatan etuk va ancha aniq munosabatni anglaydi. Ma'naviy jaholat, uyushgan zo'ravonlik (mafiya), mustabid tizim g'oyasi, tibbiyot sohasidagi turg'unlik (professor e'tiqodi), Mahkam timsolidagi xudbinlik va insofsizlik, axloqiy buzuvchilik kabi bir qancha dolzarb ijtimoiy nosoz illatlar borki, ularga nisbatan nafaqat yozuvchi, balki jamiyatning a'zolari, barcha kitobxonlar ham isyon ko'tarishi, itoatga kela olmasligi aniq. YOzuvchining bu hodisalarga bahosi bugungi kundalik hayotdagi ekzistentsial fojeiylilik, tushkunlik, umidsizlik kayfiyati, ma'nisiz hayot, jaholat va zo'ravonlikning o'tkinchiligi (Bossning «oliyjanobligi», Diananing insofga kelishi, Larisa xolaning vasiyatlari) ichki ma'naviy inqilob orqali itoatga kelish inson xarakteri va tabiatini o'zgartirishi mumkinligi hamda ijtimoiy munosabatlarni qayta qurish imkoniyatlariga ishora qiladi.

Isyon sabablari, jaholat, ma'nisizlikni to'liq idrok etish va ularga nisbatan nafrat, norozilik tuyg'usi yozuvchini ma'suliyat, hamkorlik, sadoqat, insof, jasorat, intizom, fidoyilik va fidokorlik kabi insoniy-gumanistik qadriyatlar tomonida ekanligini bildiradi. Badiiy ijod qonuniyatiga ko'ra, yozuvchi bu qadriyatlar mohiyatini tavsiflab o'tirmaydi. Bu vazifani kitobxonning o'ziga havola qiladi.

Qahramonlar kechinmalari, ruhiy holatlari, falsafiy mushohadalari psixologik tasvirning eng samarali vositasi bo'lgan ichki monolog orqali berilgan.

Isyon va itoat, borliq va yo'qlik, hayot-mamot, ma'no va mohiyat masalalariga ko'p e'tibor qilgan adiblar J.Konrad («Nastromo»), A.Kamyu («Vabo» romani, «Begona», «Tushkunlik» qissalari misolida) asarlaridagi kabi muammolar ko'tarilgan. U.Hamdam romanida, ayniqsa, Alber Kamyu qo'ygan «Nima uchun yashash kerak?», «Qanday yashash kerak?» degan savollarga javob topamiz. Kamyu ta'kidlaganidek, «asarda isyon sog'inch, umidsizlik, ruhan tushkunlikni ifodalasa ham, u baribir yaxshilik, najotbaxshlik bilan yakunlanadi. Umidsizlikni o'z nomi bilan atash ham umid baxsh etish demakdir». Ulug'bekda ham shunday. Isyon oqilona va amaliy ahamiyatga egaligidan itoat bilan yakun topadi. Nohaq qamalgan Akbarning haqiqatgo'y o'qituvchiligini hurmat qilamiz, unga samimiy hamdard bo'lamiz. Ilmiy tadqiqot instituti laboratoriyasida tadqiqot olib borayotgan doktor – tabibning u erdan ishdan ketkizilishi va kesilishini qoralaymiz, haqsizlikka qarshi norozilik bildiramiz. Tursunboyning mehnatkashligini (bu erda ham Kamyuning «Sizif haqidagi rivoyati»ni eslash joiz) oqlab, uning bir taraflama, ma'naviy qashshoqligiga achinamiz. Diananing «qaytishi», Mahkamning fojeasi, Larisa xolaning va tabibning bir jumla bilan qayd etilgan o'limlari – ratsional nekbin fojea.

Ulug'bek Hamdam ham, Konrad, Kamyu kabi, yakka-yolg'iz umrguzaronlikka mahkum etilgan Akbar, Tabib, Diana, Larisa xola, shar'iy oila bo'la turib er va ota mehridan uzoq Farida va farzandlari, qanoatsiz xotini va begunoh murg'ak qizchasining «ota» degan shirin so'ziga muhtoj tabibning achchiq qismati, ichki olami sirlari, nozik qarama-qarshi nuqtai-nazarlari, ruhiy kechinmalariga beparvo bo'lolmaymiz.

XX asrning o'ttizinchi yillarida evropa adabiyotida – Konrad, Kamyu, Dostoevskiy ijodida – ko'ringan ekzistentsializm insonni ma'yus, g'amgin, ruhan tushkunlikda, niyatlari amalga oshmagan nochor, butunlay umidsiz qilib, tiriklik va o'lim, borliq va yo'qlik o'rtasida tasvirlagan. Ro'yobga chiqmagan orzu-umidlarining puch, xom xayol ekanligini ko'rsatib berilgan. Kamyu aytganidek,

«sarobdangina iborat bu zulmat olamda odam o'zini begonaday his qiladi. Inson va uning hayoti, aktyor va dekoratsiya o'rtasidagi bu nomuvofiqlik absurd tuyg'u deyiladi».

Masalan, Tursunboyning achchiq qismati haqida tabib mushohada yuritadi: “Bechora, esini tanibdiki, mehnatdan boshi chiqmadi. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demadi, ochin-to'qin chang-chunglarga belanib yurdi. Topganini uyga tashidi, imorat qurdi, qiz chiqardi, o'g'il uyladi va... va to'xtadi... Hammasi – hayoti sob bo'ldi, Lekin evaziga... evaziga nima ko'rdi?!..” (87-bet). Hech nima. Faqat ma'nisiz hayot. Absurd umrining oxirgi damlarida ham Tursunboy Jontalash bir kam dunyo tashvishini qiladi. “Sarobdangina iborat” nimaningdir – ham tanish, ham qandaydir notanish – nimaningdir o'ziga yaqinlashib kelayotganini his qilib turibdiyu, shunda ham uning miyasiga g'alati fikrlar keladi. Bu yorug' dunyodagi ishlari chala qolayotganday tuyuladi. Ularni hech kimga ishonmaydi. Qaniydi, qimirlay olsayu, turib o'zi bitirib tashlasa. Kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, emay-ichmay, och-nahor, dam olish nimaligini bilmay, imoratni qurib bitkazibdiyu, lekin, baribir, ish poyoniga etmayotganday tuyulaveradi unga. Shu erda ham uning, o'lim to'shagida yotgan Tursunboyning joniga aro kirayotgan tabibga murojaat qiladi: «Tabib, bitta iltimosim bor. Anavi imoratga qarang...Unga bitta g'isht etmayapti. Sizdan iltimos, jonim uzilguncha o'sha g'ishtni qo'yib kelsangiz. Tabib imoratni bir zum kuzatib hayron turib qoldi. Chunki uning g'isht qo'yadigan joyi qolmagandi...”. Bu obraz orqali, professor Umarali Normatov aytganiday, “aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma'nisiz qismatga muhtalo etilgan shaxsning fojeasi... o'ziga xos tarzda badiiy tahlil” etilgan.¹

Ulug'bek Hamdamning romanini hozir adabiyot olamida yuz berayotgan globallashuv jarayonining bir belgisi sifatida baholash mumkin. Kamyuning yuqorida ishora qilib o'tilgan “Vabo” romanida yozuvchining tug'ilgan yurti – Jazoirning Oran shahrida yuz bergan vabo epidemiyasi tarixi ko'chma ma'noda – Frantsiyaning natsistlar tomonidan bosib olinishi, yoki boshqacha – ramziy

¹ U.Hamdam, Yangilanish ehtiyoji. -Toshkent: Fan. -2007. 127-bet.

ma'nodagi o'lim va yovuzlik hikoya qilinadi. Adabiyotning bu o'ziga xos royishida tarixan aniq, haqiqiy ijtimoiy jarayonlar emas, ramziy teran vaziyatlarda o'zini namoyon qiladigan, axloq nuqtai-nazaridan baholanadigan fojia yotadi.